



XORIJIY TILLARNI O'QITISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR NAZARIYANING AMALIYOTGA TATBIQI

mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani

INGLIZ VA O'ZBEK LINGVOMADANIYATIDA "YOLG'ON" KONSEPTI

Soqiyeva Shirin Shokirovna

Toshkent transport universiteti talabasi

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.15179562>

Annotatsiya: Mazkur maqolada ingliz va o'zbek lingvomadaniyatida "yolg'on" konsepti qiyosiy tahlil qilinadi. Yolg'on tushunchasining har ikki til va madaniyatda qanday aks etishi, uning semantik, pragmatik va psixolingvistik xususiyatlari tadqiq qilinadi. Shuningdek, turli iboralar, metaforalar va frazeologizmlar orqali yolg'on konseptining ifodalanish xususiyatlari ko'rib chiqiladi. Tadqiqot natijalari ingliz va o'zbek tillarida yolg'on bilan bog'liq til birliklarining o'ziga xos jihatlari ochib beradi.

Kalit so'zlar: lingvomadaniyatshunoslik, yolg'on konsepti, semantik, pragmatik va psixolingvistik xususiyatlar, lingvistika, sinonimlar, antonimlar.

Kirish. Lingvomadaniyatshunoslik- bu til va madaniyat o'rtasidagi murakkab va o'zaro bog'liq munosabatlarni o'rganuvchi fan sohasidir. U tilning madaniy kontekstini va tilning madaniyatni shakllantirishdagi va aks ettirishdagi rolini, shu bilan birga, madaniy qadriyatlar va e'tiqodlarning tilga ta'sirini o'rganadi.

Til nafaqat so'zlar va grammatikaning yig'indisidan, balki u ma'lum bir madaniy kontekstda mavjud bo'lib, u yoki bu xalqning madaniyatni urf odatini, qadriyatini, e'tiqodini namoyon qiladi. Misol uchun boshqa tilni o'rganayotgan inson nafaqat u tilning grammatikasini, balki u tildan foydalanuvchilar madaniyatini, urf odatini, qadriyatlarini o'rganadi va shu asosda o'z dunyoqarashini boyitadi. Shuni aytish joizki, xalqning turli e'tiqodlari va qadriyatlari tilga juda katta ta'sir qiladi. Lingvomadaniyatshunoslik har hil sohalar, jumladan tarjimashunoslik, etnologiya, antropologiya, adabiyotshunoslik va psixolingvistika bilan bevosita bog'liq va shu fanlar bilan bog'lab o'rganiladi.

Lingvokulturalogiyaning asosiy tushunchalaridan biri bu "konsept" ong birligi hisoblanadi. E.S.Kubrakova konsept haqida o'rinli fikr bildirgan. E.S.Kubrakovaning fikriga ko'ra "Konsept – mental tuzilma bo'lib, u turli tarkibdagi va ko'rinishdagi bilimlar kvanti yoki umumlashmasidir" (Kubryakova i dr. 1996,90-93). Tilshunos A.E.Mamatov "Konsept – bu ong birligi bo'lib, qabul qilingan bilim, erishilgan tajriba inson hayotidagi faoliyat natijalari, muayyan madaniyatga taalluqli tasavvur va bilimlar majmuasidir" deb ta'rif bergan (A.E.Mamatov.2019.95 bet.). Demak, "konsept" – bu inson ongidagi umri davomida o'zlashtirgan dunyoviy ilmlar jamlanmasidir.

Shak-shubhasiz, inson o'z faoliyatining har bir sohasida aldovga, yolg'onga uchraydi. Tadqiqotlarga ko'ra yosh bolalar 4 yoshdan keyin yolg'on ishlatsa, demak,



XORIJIY TILLARNI O'QITISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR NAZARIYANING AMALIYOTGA TATBIQI

mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani

ularning miya faaoliyati yaxshi ishlayotganidan darak beradi. “Yolg‘on tasdiqlarning (fikrlarning) ishlab chiqilishini o‘z ichiga olgan aldovningina yolg‘on deb hisoblash mumkin [Carson,Wokutch,Mumnann,1989:226]. Demak, yolg‘on yashirilgan holatda emas tasdiqlansagina erishiladigan ma’lum bir aldov demakdir. X.Vaynrayxning ta’kidlashicha: “Yolg‘on har doim lingvistikaga tegishlidir”[Вайнрайх Х,1987:44], chunki har bir yolg‘on til ifodasi bilan taqdim qilingan.

“Yolg‘on” konseptini lingvistik tahlil qilishda bir necha muhim jihatlar mavjud. Yolg‘on so‘zini semantik jihatdan tahlil qiladigan bo‘lsak, biz uning sinonimlarini, antonimlarini, shuningdek, kuchaytirilgan va yumshatilgan shakllarini ko‘rib chiqishimiz lozim. Yolg‘on, o‘zbek izohli lug‘atlarining ta’riflari bo‘yicha -1) sft. “haqiqatga zid, noto‘g‘ri, haqiqatda bo‘lmagan” bunga ba’zi quyidagi misolni keltiramiz: [Otabek] Ilgari o‘zining yolg‘on javoblaridan juda havotirlanar edi. [A.Qodiriy,O‘tgan kunlar] 2.sft. Haqiqiy emas, soxta, yasama, yolg‘ondakam. 3.ot. Haqiqatga to‘g‘ri kelmaydigan, noto‘g‘ri gap, uydirma. “Shirin yolg‘ondan achchiq haqiqat yaxshi”.[O‘zbek xalq maqollari] ingliz tilida “lie” “an untrue declaration” “statement one known to be untrue” “ a statement or action one made with intent to deceive”.

Yolg‘on so‘zining antonimlari: haqiqat, chin, rost. Kuchaytirilgan shakllari: g‘irt yolg‘on, bo‘rttirilgan yolg‘on. Yumshatilgan shakllari: yolg‘onchilik, yolg‘on gapirib qo‘yish.

Yolg‘on so‘zining pragmatik jihatlariga nazar solamiz, so‘z yoki gap ma’nosi faqat lug‘aviy jihatdan emas, balki u qaysi vaziyatda, qanday maqsadda ishlatilganiga qarab tushuniladi. Masalan : “U yolg‘on gapirmaydi” degan gap oddiy xabar bo‘lishi ham mumkin, yoki kimningdir ustidan kulish uchun aytilgan bo‘lishi ham mumkin. Yolg‘on konseptini sotsiolingvistik jihatdan tahlil qilish ham o‘rinli. Har hil ijtimoiy guruhlar va madaniyatlardagai odamlar yolg‘on so‘zini turlicha qabul qilishadi. Ba’zilar yog‘ondan manfaat yoki kuch olish foydalansa ba’zilar mojarolarning oldini olish uchun ishlatadilar (oq yolg‘on).

Xulosa qilib aytganda yolg‘on konseptini ingliz va o‘zbek lingvomadaniyatidagi lisoniy xususiyatlarini o‘rganish juda muhim va dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘tkan kunlar: roman. Abdulla Kodiriy. - T.: «Info Capital Group», 2017. - 488 b.
2. Carson Th., Wokutch R.E., Mumnann K.F. BluffiTig in Labor Negotiations: Legal & Ethical Issues // Contemporary moral controversies in business. - N.Y., 1989. - P, 221 ^ 229
3. Вайнрайх Х. Лингвистика лжи // Язык и моделирование социального взаимодействия. - М.: Прогресс, 1987. - С, 44 - 87



**XORIJIY TILLARNI O'QITISHDA INNOVATSION
YONDASHUVLAR NAZARIYANING AMALIYOTGA TATBIQI**
mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani

4. A.E.Mamatov. Zamonaviy lingvistika: o'quv qo'llanma. —Toshkent.: “Noshir” nashriyoti, 2019. 95 bet .
5. Кубрякова Е.С., Демянков В.З., Панкратс Й.Г., Лузина Л.Г. Краткий словарь когнитивных терминов. М.: Изд-во МГУ, 1996
6. Mirzayev T., Musoqulov A., Sarimsoqov B. O'zbek xalq maqollari. T.: 2005.
7. O'zbek tilining izohli lug'ati .(A.Madvaliyev tahriri ostida). T.: 2005.